

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAYIV O'QITISH
TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI**

Ullibibi Sharipovna Sabirova

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, katta o'tuvchi

Annotasiya: *Zamonaviy ta'lim tizimida masofaviy ta'lim ham kata o'ringa ega, o'lib kelmoqda. Bu tarzda ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro internet orqali muloqotda bo'ladi, talaba o'zi ustida ko'proq ishlaydi va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida o'qituvchi bilan doimiy muloqotda bo'ladi. Maqolada masofaviy ta'limning eng muhim jihatlari keltirilgan bo'lib, masofaviy o'qitish davomida talaba mustaqil o'quv darsliklarni o'zlashtirishi va berilgan vazifalarni mustaqil bajarib borishi tamoyillari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Masofaviy ta'lim, pedagogic texnologiya, Moodle, video darsliklar, Web muhiti, ta'lim modeli, Online muloqat.*

Ta'limga internet texnologiyalarining kirib kelishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi asrlar davomida ta'lim sohasida o'zgarmay kelayotgan o'qitish tizimini o'zgartirib yuborishga sabab bo'ldi. Shu jumladan, ta'lim sohasi rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda. Masalan: ta'lim tizimida ta'lim olishning an'anaviy shakllari o'rniga masofaviy ta'lim tizimini joriy etilishiga imkon yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil 30-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida elektron ta'lim tizimiga o'quv-uslubiy majmualarni kiritishni tashkillashtirish to'g'risida"gi 526-son buyrug'ining 4-bandi ijrosi yuzasidan Moodle elektron ta'lim tizimiga o'quv-uslubiy majmualarni joylashtirish va talim tizimida (jarayonida) foydalanish bo'yicha qaror qabul qilindi. Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro internet orqali muloqotda bo'ladi, talaba o'zi ustida ko'proq ishlaydi va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida o'qituvchi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bilan doimiy muloqotda bo'ladi. Eng muhimi masofaviy ta'lim joyga, vaqtga bog'liq emas, talabalarning soni cheklanmagan. Masofaviy o'qitish davomida talaba mustaqil o'quv darsliklarni o'zlashtiradi, nazorat savollariga javob berib boradi. Ta'limning bu turi sirtqi, maxsus sirtqi, malaka oshirish kurslari hamda oilali, yoshi kattalar va ishlaydigan talabalar uchun juda qulay ta'lim tizimi hisoblanadi. Masofaviy o'qitish tizimini ikkiga bo'lish mumkin:

Birinchisi, oliy o'quv yurtlarida an'anaviy ta'lim olish tizimi va masofaviy o'qitish tizimini o'zaro uzviy bog'lagan holda o'qitishdir. Shuning uchun ta'lim muassasasi (institut, universitet) axborot texnologiyalari sohasi yaxshi rivojlangan bo'lishi, elektron kutubxonalar va texnik jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi shart. Texnik jihozlarga kompyuterlar, tarmoq qo'rilmalari, yuqori tezlikdagi Internet tarmoqlari, video konferentsiya jihozlari va boshqalar. An'anaviy bilan masofaviy ta'limni o'zaro boglashda universitet (institut) professor-o'qituvchilari muhim rol o'ynaydi. Ular ma'ruza, amaliyot, laboratoriya, video darsliklar, taqdimotlar va boshqalarni moodle (masofaviy ta'lim tizimining bir turi bo'lib, Web muhitida o'qitish va on-line rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi, vebga yo'naltirilgan dasturiy majmua hisoblanadi.) tizimiga joylashtirishlari kerak. Bundan tashqari, o'qituvchi talabalarga ma'ruza paytida moodle tizimiga joylashtirilmagan ma'lumotlarni yetkazishi kerak. Moodle tizimining yana bir qulayligi shundan iboratki, maruza darslarni kamaytirib amaliy, laboratoriya darslarini ko'paytirish mumkin. Buni amalga oshirish uchun moodle tizimiga maruza matnini shunday joylashtirish kerakki, talaba o'qib, tushinib olishi lozim. Buning uzun faqat ma'ruza matni emas, balki mavzuga mos keladigan video darslarni, klaster metodlarini joylashtirish kerak. Masofali o'qitishning bunday modeli ilk bor Avstraliyaning yangi Angliya universiteti (University of New England, Australia – <http://www.une.edu.au>) da tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda dunyoning etekchi oliygohlarida foydalaniladi. O'zbekistonda birinchi bo'lib Andijon mashinasozlik institutida qo'llanilgan (<http://www.andmiedu.uz>). Hozirda esa Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ham shu tizimga o'qitishni qo'llab kelmoqda.

Ikkinchisi, masofadan turib o'qish tizimidir. Bu moodle tizimida talaba va o'qituvchi fazoviy muloqatda bo'lish imkoni yaratilgan. Mana shu masofadan o'qitish tizimi so'nggi yillarda G'arb ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Bunda talaba dunyoning istalgan joyida mustaqil o'qish imkoniyatiga ega va talabalar soni cheklanmagan, vaqtning ahamiyati yo'q, eng muhimi bu tizimda online darslarning bo'lishi, o'qituvchi online savol-javob o'tkazish imkoniyatlari mavjud. Bunday tamoyilda o'qitish tizimi Ochiq universitetlarda, masalan, Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti (United Kingdom Open University – <http://www.open.ac.uk>) da tashkil etilgan. Hozirgi vaqtda MOODLE tizimi jahonning yirik universitetlarida qo'llab kelinmoqda. MOODLE tizimida taxminan 2 mln nafar faoliyat olib boruvchilar qayd etilgan, 200 ta davlatda 70 tildagi 46 ming o'quv portallari va 300 nafar programmist-ishlab chiqaruvchilar faoliyat olib bormoqda. Masofaviy ta'lim tizimini ikkita oliy o'quv yurtlari bilan o'zaro qo'llasak bo'ladi. Buning uchun universitet yoki institut xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda moodle tizimi orqali ma'lumotlarni almashishlari kerak. Oliygozlarning talabalari bir birlarining moodle tizimiga kirgan holda ishlashi, tushunmagan joylarini o'qituvchilardan so'rashi va online orqali bir birlari bilan muloqatda bo'lishi imkonini yaratadi. Bunda talabalarning fikirlash saviyasi oshadi, yangi-yangi ma'lumotlarni oladi. Masofaviy ta'limni tashkilot (korxonalar) sohalari bilan ham bog'lasak bo'ladi. Tashkilot oliy o'quv yurtlari bilan shartnoma tuzgan holda moodle tizimiga kirib, o'ziga kerakli kadrlarni tanlab olish, ishga taklif qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda oliy o'quv yurti tashkilot (korxonalar) larga talabalarning o'quv jarayonidagi reyting ko'rsatkichlari bilan tanishish va talaba bilan online muloqat, suhbat o'tkazish imkonini yaratib berish kerak. Masofaviy ta'limning asosiy texnologiyalari quyidagilardan iborat:

Interaktiv texnologiyalar:

1. Video va audio konferentsiyalar.
2. Internet orqali mustaqil ta'lim olish.
3. Test topshirish sistemasi.
4. Online muloqat dasturlari.

Интерактив bo'lmagan texnologiyalar:

1. Television va radio ko'rsatuvlar.
2. Disklarda joylashgan dasturlar.

Masofadan o'qitish usulida o'quvchi va o'qituvchi bir-biridan masofa bilan ajralgan bo'lsa ham doimiy muloqot saqlanib qoladi. Bu o'qitishni nazorat qilishning alohida usuli bo'ladigan elektron pochta va internet texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedov, B. A., & Khasanova, S. K. (2020). Public education system methods of distance in education in development of employees. *Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 1(1), 252-256.

2. Ахмедов, Б. А. (2020). Математические модели оценки характеристик качества и надежности программного обеспечения. *EURASIAN EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION JOURNAL*, 3(10), 97-100.

3. Гулбоев, Н. А., Дуйсенов Н. Э., Ахмедов, Б. А., & Рахманова, Г. С. (2020). Модели систем управления электрическими сетями. *Молодой ученый*, 22(312), 105-107.

4. Мухамедов, Ф. И., & Ахмедов Б. А. (2020). Инновацион "Klaster mobile" иловаси. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 140- 145.